

## ODDIY GIJJA (OSTRITSA)NING MORFOLOGIK TUZILISHI, ENTEROBIOZNING SIMPTOMLARI, DIAGNOSTIKASI VA DAVOLASH USULLARI HAQIDA

Ochilov Abubakr Sheraliyevich

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti Talabasi

Djumanova Nargiza Eshmamatovna

Ilmiy rahbar: Katta o`qituvchi

Ishning maqsadi: Oddiy gjija (Ostritsa) tuzilishi, uning yuqish yo`llari, Enterabioz kasalligining kelib chiqish sabablari ,davolash usullari ,hamda bu kasallikning yangi davolash choralarini nazariyada chuqurroq o`rganib, uni amaliyotda kasallarga qo`llashni o`rganish.

Tadqiqot materiallari: Bu kasallik haqida ko`proq ma`lumotga ega bo`lish uchun men SamDTU 1-sonli ko`p tarmoqli klinikasidagi Pediatriya bo`limi shifokori – Djumanova Gulchehra Eshmamatovna bilan suhbatda bo`ldim va kasallarning tekshiruvida qatnashdim. Ostritsa (oddiy gjija)- uncha katta bo`lmagan o`lchamda o`rtacha 1sm, oq-kulrang rangda, egilgan tanali bo`ladi. Bu parazitning ko`payish joyi yo`gon ichakdir .Bazida ular ingichka ichakning pastgi qismida ham joylashishi mumkin . Ushbu infeksiya odatda 2 yoshdan 10 yoshgacha bo`lgan bolalarga ta`sir qiladi. Kasallikning cho`qqisi 5 yoshda sodir bo`ladi. Kasallik uy -ro`zg`or buyumlari, iflos qo`llar orqali maishiy -kontakt yo`li orqali yuqadi. Shuningdek ,infeksiya ifloslangan suv yoki gelmint tuxumlari bilan zararlangan changdan nafas olish yo`li bilan yuqishi mumkin .ko`pincha bu kasallik bilan barcha yangi narsalarni “tishda” sinab ko`rishga moyil bo`lgan bolalar infektsiyalanadi. Bu infeksiyani yuqtirib olgandan so`ng bolalarda Enterobioz kasalligi kelib chiqadi. Ostritsa ko`payishi anal teshigi terisi atrofida kechadi. Tunda ostritsa urg`ochisi tuxumlarini qo`yish uchun teri burmalariga boradi,qiz bolalarda ko`pincha qin atrofiga ham o`tadi. Ushbu gelmintlar 1-1,5 oy hayot kechiradi. Bola o`z-o`zini zararlanishi uning yillar davomida bezovtalanishiga sabab bo`ladi.

Tadqiqot natijalari:

Enterabiozga xos alomatlar: kuchli qorin og`rig`i, yuzdagagi oq dog`lar, tishni g`ichirlatish (uyqu paytida ), ko`ngil aynishi, ishtaha pasayishi , xotiraning pasayishi, diareya va umumi intosikatsiya (bosh og`rig`i, bosh aylanishi) kabi alomatlar kuzatiladi Kasallikning diagnostikasida quyidagi tekshiruvlarni amalda o`tqazish zarur :umumi ko`rik, najasni tahlil qilish ,perianal sohadan olingan sutmani mikroskopik tekshirishlar amalga oshirilib kasallik bilan kasallanganligi aniqlanadi. Enterabioz kasalligini davolash uchun shifokor tomonidan tavsiya etilgan polivitaminlar, antigistaminlar, immunodulyatorlar,o`z vaqtida istemol qilinishi kerak. Eng asosiysi bolalarning gigiena rejimiga rioya qilishi kerak. Shifokor tomonidan bemor bolalarga 4- sonli parhez stoli buyiriladi. Bu stol asosan vitamin va kaloriyaga boy elementdan tashkil topgan.

Xulosa: Enterabioz kasalligi oldini olish uchun shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish , suv manbalar holatini kuzatib borish , kanalizatsiya chiqindilarini tozalash va umumiy ovqatlanish korxonalarida sanitariya -gigiena meyorlariga rioya qilish kerak. Agar bolalarda enterabioz o`z vaqtida davolanmasa anemiya, gastrit, enterit, allergik reaksiyalar va asab tizimining ishidagi buzilishlarga olib keladi. Enterabioz kasalligi yomon asoratlarga olib kelmasidan oldin yosh bolalarni doimiy tibbiy ko`rikdan o`tkazish lozim. Kasallikni to`liq davolaguncha pediatr va parazitolog shifokor nazoratida bo`lishi kerak .